



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2021- YIL YANVAR-APREL  
(DASTLABKI MA’LUMOT)




Sanoat statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.: 71-202-80-46

## O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-aprel oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalarini tomonidan 124,3 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,8 % ni tashkil etdi.



*B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C - Ishlab chiqaradigan sanoat D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E - Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash –1,8 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,7 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 3,9 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 11,8 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,7 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,2 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-aprel oylarida, % da)



### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	1215,2	1444,5	229,3
Neft, ming t.	234,1	236,5	2,4
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	17505,4	18089,6	584,2
Gaz kondensati, ming t.	511	471,4	-39,6
Chaqiq tosh, ming t.	350,7	400,1	49,5
Shagʻal , ming t.	51,9	24,7	-27,2
Kaolin, ming t.	41,9	57,9	16,0

**Ishlab chiqaradigan sanoat**




2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 100,4 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,8 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-aprel oylarida, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,5 % ni (2020- yilning yanvar-aprel oylarida – 1,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 19,7 % (24,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 40,1 % (38,3 %) va quyi texnologiyalisi – 37,6 % (35,5 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalari ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 15,9 % (2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 28,7 % (2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 111,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,9 % (2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 120,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,3 % (2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 107,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,6 % (2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 113,4 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 368,6 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 0,8 % ga oshgan), 203,6 ming tonna kalava ip (15,9 %), 54,1 mln. litr pivo mahsulotlari (8,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi, hamda 598,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (7,9 % ga kamaygan).

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da





**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, <i>dona</i>	96727	64987	-31740
Yuk avtomobillari, <i>dona</i>	1237	1268	31,0
Avtomobil dvigatellari, <i>ming dona</i>	77,1	44,9	-32,2
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	650,1	598,5	-51,6
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	253,6	290,2	36,6
O‘simlik yog‘i (tozalangan), <i>ming t.</i>	63,8	65,0	1,2

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Respublikada 2021- yil yanvar – aprel oylarida jami 1268 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarish sanoatida ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 % ga oshgan.

**Yuk avtomobillari ishlab chiqarish sanoati  
*yanvar-aprel oylarida***




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Respublikada 2021- yilning yanvar-aprel oylarida 265 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37,5 % ga pasaygan.

### **Avtobus ishlab chiqarish sanoati** *yanvar-aprel oylarida*

*miqdori dona*




*o'sish sur'ati, % da*




Respublikada avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish sanoatida 44,9 ming dona dvigatellar ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 41,8 % ga pasaygan.

### **Avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish** *yanvar-aprel oylarida*

*miqdori ming dona*



*o'sish sur'ati, % da*






## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-aprel oylarida qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 173 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 62,1 % ga kamaygan.

### O'zbekiston Respublikasida traktor ishlab chiqarish sanoati, yanvar-aprel oylarida




2021- yilning yanvar-aprel oylarida qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 283 dona kultivatorlar va yer yumshatkichlar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43,7 % ga kamaygan.

### O'zbekiston Respublikasida kultivatorlar va yer yumshatkichlar ishlab chiqarish sanoati, yanvar-aprel oylarida



Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida 18223 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 76,9 %), 9279 dona “NexiaT-250” (37,0 %), 12047 dona “Lacetti-Gentra” 67,3 %), 17666 dona “Damas”( 100,6 %), 3823 dona “Spark” (36,9 %) hamda 3949 dona “Labo” (186,4 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

**O‘zbekiston Respublikasida yengil avtomobillar  
ishlab chiqarish sanoati**  
*yanvar-aprel oylarida, dona*



**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari**  
**tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.	3081,7	5151,9	2070,2
Portlandsement, ming t.	2822,8	3582,6	759,8
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	3406,1	3003,6	-402,5
Dizel yoqilg'isi, ming t.	363,4	198,7	-164,7
Avtomobil benzini, ming t.	365,8	368,6	2,8

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan metil spirti (2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 12,6 m.), kaustik soda (2,0 m.) hamda vinilpolimerlari asosidagi bo'yoq va lak (167,2 %) mahsulotlarida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.


Shuningdek, ammoniy sulfat (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 73,4 %) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.



### Metallurgiya sanoati (yanvar-aprel oylarida)



**FHI**  
**% da**




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 24,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 0,8 % ga oshgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 28,7 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 11,2 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 28817,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (yanvar-aprel oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 4770,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**FHI**  
**% da**




## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-aprel oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 13355,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
% da



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-aprel oylarida)

**FHI**  
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 121,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2378,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar-aprel oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 118,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 22,2 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 15091,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**FHI**  
% da




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-aprel oylarida)



**FHI**  
% da




2020- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 93,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 %, fizik hajm indeksi 118,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 3362,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar-aprel oylarida)

2020- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 104,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,9 % ni, fizik hajm indeksi 113,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 7979,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**% da**



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-aprel oylarida)


**FHI**  
**% da**



2020- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 7,0 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi 56,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2843,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish (yanvar-aprel oylarida)




2020- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 110,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 28,4 % ga kamaygan hamda ishlab chiqarish hajmi 8168,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (yanvar-aprel oylarida)

2020- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 15,1 % ga oshgan.


Shuningdek, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 113,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1617,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.





## Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash

yanvar-aprel oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,1 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (8,2 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,8 % ga oshganligi kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar-aprel oylarida, % da)



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	21 682,3	23 528,4	1 846,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	11 950,6	12 226,2	275,6
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub. m.	110 179	102 087	-8 092

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-aprel oylarida*



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,1 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-aprel oylarida, % da)*




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	56,0	85,0	29,0
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mln.so'm</i>	123,5	163,0	39,5
To'qimachilik chiqindilari, <i>t</i>	4 653,8	4 503,8	-150,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 32,0 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 51,9 % ga oshganligi kuzatildi, shuningdek, to'qimachilik chiqindilarining 3,2 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
















Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 37,8 trln.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 105,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 30,4 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,4 % (2020- yil yanvar-aprel oylarida 6,9 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib 21,9 % ni, shuningdek, Andijon viloyati 17,2 % ni, Toshkent viloyati 11,2 % ni hamda Samarqand viloyati 9,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida respublika o'sish sur'ati (105,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Jizzax (121,3 %), Sirdaryo (118,9 %) Samarqand (117,0 %) , viloyatlarida hamda Toshkent shahrida (120,8 %) qayd etildi.

















**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
2021-yilning yanvar-aprel oylarida**

	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	37759,8	100,0	105,7	<b>O'zbekiston Respublikasi</b>			
	764,9	2,0	105,7		3660,6	9,7	117,0
<b>Qoraqalpog'iston Resp.</b>				<b>Samarqand</b>			
	6502,9	17,2	72,5		537,4	1,4	105,6
<b>Andijon</b>				<b>Surxondaryo</b>			
	2162,7	5,7	118,1		1056,3	2,8	118,9
<b>Buxoro</b>				<b>Sirdaryo</b>			
	810,8	2,1	121,3		4230,6	11,2	116,6
<b>Jizzax</b>				<b>Toshkent</b>			
	1072,8	2,8	107,6		2513,1	6,7	106,9
<b>Qashqadaryo</b>				<b>Farg'ona</b>			
	1135,3	3,0	104,5		1992,8	5,3	104,8
<b>Navoiy</b>				<b>Xorazm</b>			
	1998,6	5,3	115,9		8282,0	21,9	120,8
<b>Namangan</b>				<b>Toshkent sh.</b>			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib 22,7 % shuningdek, Andijon 24,1 % Samarqand viloyati 9,3 % ni, Toshkent viloyati 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Jizzax (128,4 %), Sirdaryo (128,4 %), Buxoro (120,3 %) viloyatlarida hamda Toshkent shahrida (130,8 %) qayd etildi.
















**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>							
	259,7	1,1	95,6		2205,4	9,3	116,4
<b>Qoraqalpog'iston Resp.</b>				<b>Samarqand</b>			
	5706,4	24,1	69,4		275,1	1,2	116,3
<b>Andijon</b>				<b>Surxondaryo</b>			
	1377,2	5,8	120,3		615,8	2,6	128,4
<b>Buxoro</b>				<b>Sirdaryo</b>			
	559,6	2,4	128,4		1930,5	8,2	112,3
<b>Jizzax</b>				<b>Toshkent</b>			
	383,6	1,6	106,1		1557,8	6,6	114,9
<b>Qashqadaryo</b>				<b>Farg'ona</b>			
	653,3	2,8	101,3		1494,8	6,3	101,7
<b>Navoiy</b>				<b>Xorazm</b>			
	1276,4	5,4	121,4		5359,1	22,7	130,8
<b>Namangan</b>				<b>Toshkent sh.</b>			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 20,7 % ni, shuningdek, Toshkent viloyati 16,3 % ni, Samarqand viloyati esa 10,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent (120,5 %), Samarqand (118,0 %), Xorazm (115,3 %) viloyatlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

















	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	14104,9	100,0	114,4
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>			
	505,1	3,6	111,7
<b>Qoraqalpog'iston Resp.</b>			
	1455,1	10,3	118,0
<b>Samarqand</b>			
	796,4	5,6	107,7
<b>Andijon</b>			
	262,3	1,9	96,3
<b>Surxondaryo</b>			
	785,5	5,6	114,5
<b>Buxoro</b>			
	440,5	3,1	107,6
<b>Sirdaryo</b>			
	251,2	1,8	108,2
<b>Jizzax</b>			
	2300,0	16,3	120,5
<b>Toshkent</b>			
	689,2	4,9	108,4
<b>Qashqadaryo</b>			
	955,3	6,8	96,0
<b>Farg'ona</b>			
	482,0	3,4	109,2
<b>Navoiy</b>			
	498,0	3,5	115,3
<b>Xorazm</b>			
	722,3	5,1	107,2
<b>Namangan</b>			
	2922,9	20,7	106,0
<b>Toshkent sh.</b>			

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 32,1 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 25,8 % ni tashkil etdi.

**U'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida**  
**sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**  
 2021- yilning yanvar-aprel oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	124 281,2				100,0		106,6
<b>O'zbekiston Respublikasi *</b>							
	5 504,2	4,4	109,3		5 959,2	4,8	109,4
<b>Qoraqalpog'iston Resp.</b>				<b>Samarqand</b>			
	9 409,3	7,6	87,3		1 524,4	1,2	105,0
<b>Andijon</b>				<b>Surxondaryo</b>			
	5 207,3	4,2	86,6		3 082,7	2,5	115,7
<b>Buxoro</b>				<b>Sirdaryo</b>			
	2 014,8	1,6	116,7		22 260,6	17,9	105,9
<b>Jizzax</b>				<b>Toshkent</b>			
	5 746,0	4,6	128,9		6 998,1	5,6	100,2
<b>Qashqadaryo</b>				<b>Farg'ona</b>			
	22 475,4	18,1	109,9		3 502,0	2,8	109,6
<b>Navoiy</b>				<b>Xorazm</b>			
	3 816,2	3,1	110,8		22084,9	17,8	112,7
<b>Namangan</b>				<b>Toshkent sh.</b>			

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

**O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Qashqadaryo (2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 128,9 %), Jizzax (116,7 %), Sirdaryo (115,7 %), Navoiy (109,9 %) viloyatlarida hamda Toshkent shahrida (112,7 %) sezilarli darajada oshdi.



## O'zbekiston Respublikasi jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Respublika sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Toshkent shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 17,8 % i) hamda Navoiy (18,1 %), Toshkent (17,9 %), Andijon (7,6 %), va Farg'ona (5,6 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Surxondaryo (1,2 %) hamda Jizzax (1,6 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy (22 136,7 ming so'm), Toshkent (7 467,5 ming so'm) va Sirdaryo (3 574,1 ming so'm) viloyatlarida, hamda Toshkent shahrida (8 163,6 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (3 589,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 090,5 ming so'm bo'lgani holda, Toshkent shahrida – 3 061,4 ming so'mni, Andijon viloyatida – 2 035,8 ming so'mni, Toshkent viloyatida – 1 419,2 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2021- yilning yanvar-aprel oylarida, ming so'm

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	3 589,1	1 090,5
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>		



	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	2 858,4	397,2		1 506,7	925,5
<b>Qoraqalpog'iston Resp.</b>			<b>Samarqand</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	2 945,7	2 035,8		567,3	200,0
<b>Andijon</b>			<b>Surxondaryo</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	2 671,1	1 109,4		3 574,1	1 224,7
<b>Buxoro</b>			<b>Sirdaryo</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	1 425,4	573,6		7 467,5	1 419,2
<b>Jizzax</b>			<b>Toshkent</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	1 719,3	321,0		1 828,6	656,7
<b>Qashqadaryo</b>			<b>Farg'ona</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	22 136,7	1 118,2		1 846,9	1 051,0
<b>Navoiy</b>			<b>Xorazm</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	1 328,3	695,6		8 163,6	3 061,4
<b>Namangan</b>			<b>Toshkent sh.</b>		

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 27,2 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,9 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 43,0 %), Samarqand (38,0 %), Namangan (40,7 %), Fargʻona (37,9 %) hamda Sirdaryo (34,1 %) viloyatlarida kuzatildi.



Respublikamiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Navoiy (5,4 %), Toshkent (15,4 %) va Xorazm (18,0 %), Qashqadaryo (19,2 %) viloyatlarida hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasida (16,1 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini**  
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda respublikada 87,1 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 16,1 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,5 %) Toshkent shahriga, 9,5 mingtasi (10,9 %) Farg'ona viloyatiga, 8,9 mingtasi (10,2 %) Toshkent viloyatiga, 8,9 mingtasi (10,2 %) Andijon viloyatiga, 7,4 mingtasi (8,5 %) Samarqand viloyatiga, 6,9 mingtasi (7,9 %) Namangan viloyatiga to'g'ri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-aprel oylarida respublikada 7634 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 828 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 10,8 %) Farg'ona viloyatida, 718 tasi (9,4 %) Samarqand viloyatida, 670 tasi (8,8 %) Namangan viloyatida, 643 tasi (8,4 %) Qashqadaryo viloyatida, 837 tasi (11,0 %) Toshkent shahrida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonolari


2021- yil 1- may holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonolari joylashgan hududlar 10 taligida Andijon (3215 ta), Namangan (2635 ta), Samarqand (1653 ta) hamda Qo'qon (1457 ta) shaharlari hamda Toshkent shahrining Olmazor (2173 ta), Chilonzor (1993 ta), Uchtepa (1896 ta), Yunusobod (1748 ta), Shayxontohur (1429 ta) va Mirzo-Ulug'bek (1344 ta) tumanlari qayd etildi.

Respublika miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarishi korxonolari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi  
(2021- yil 1 may holatiga ko'ra, birlikda)



Respublika miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarishi korxonolari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi  
(2021- yil 1 may holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yilning 1-may holatiga ko'ra respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonolari joylashgan hududlar 10 taligiga esa Sirdaryo viloyati Shirin (60 ta) shahri; Navoiy viloyati G'ozg'on shahri (32 ta) hamda Tomdi tumani (64 ta); Jizzax viloyati Yangiobod (70 ta) hamda Arnasoy tumanlari (87 ta); Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli (81 ta), Qanliqo'l (70 ta), Taxtakopir (76 ta) hamda Bo'zatov tumanlari (36 ta); shuningdek, Surxondaryo viloyati Bandixon tumani (53 ta) qayd etildi.